

## OITS HAQIDA TUSHUNCHА. SINDROMNING INSONIYATGA TA'SIRI

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Biologiya va qo'shimcha tabiy fanlar yo'naliishi  
4-kurs talabasi - **Mamatova Ra'no**  
[rmatatova@gmail.com](mailto:rmatatova@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada OIV va OITS haqida, sindromning kelib chiqishi, nomlanishi, yuqish yo'llari, ehtiyot choralar, inson salomatligiga ta'siri hamda uning davolash usullari va oldini olish chora tadbirlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. In sonning yosh xusuyatidan kelib chiqgan holatda ularning ushbu kasallikga nisbatan kurasha olish qobiliyatini ochib bergen . OITS kasalligining dastlab aniqlanishi hamda turli olimlarning qo'shgan hissalar haqida qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** OITS, OIV, sindrom, virus , serokonversiya, toshmalar, jinsiy , dorilar, retro virus, antitelalar, antitelolar

## THE CONCEPT OF AIDS IS THE SYNDROME`S IMPACT ON HUMANITY

**Abstract:** This article provides information about HIV and AIDS, the origin of the syndrome, ways of transmission, precautionary measures, the effect on human health, as well as its treatment methods and preventive measures. its identification and the contributions of various scientists are briefly described.

**Keywords:** AIDS, HIV, syndrome, virus, seroconversion, rashes, sexual, drugs, retro virus, antibodies, antibodies

## КОНЦЕПЦИЯ СПИДА - ЕТО ВЛИЯНИЕ СИНДРОМА НА ЧЕЛОВЕЧЕСТВО

**Аннотация:** В статье представлена информация о ВИЧ и СПИДЕ, происхождении синдрома, путях передачи, мерах предосторожности, влиянии на здоровье человека, а также методах лечения и мерах профилактики. Кратко описаны его идентификация и вклад различных ученых.

**Ключевые слова:** СПИД, ВИЧ, синдром, вирус, сероконверсия, сыпь, половой акт, наркотики, ретровирус, антитела, антитела

**KIRISH.** Viruslar barcha organizm hujayralarida ko'payadigan, xususiy genomga ega bo'lib, hujayralardan tashqarida yashay olmaydi. OITS birinchi marta 1981 yili AQSH da topilgan. Bir yildan so'ng bu kasallik Yevropa va dunyoning boshqa mamlakatlarda ham qayd qilingan. Hozir OITS deyarli barcha davlatlarda tarqalganligi uchun buni XX asrning vabosi ham deb ataladi. Virusni birinchi bo'lib OITS bilan kasallangan bemorlardan 1983 yili bir-biridan mustaqil ravishda Fransiyada L.Montane va AQSH da R.Gallolar ajratib oladilar“ Определение

видового состава возбу- Дитетей орофарингеального кандидоза у больных ВИЧ-инфекцией”{1, р. 93-94}

### ***Orttirilgan immun tanqisligi sindromi haqida.***

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) – retrovirus guruhiga mansub virus qo‘zg‘atadigan kasallik bo‘lib, ikki davrga bo‘linadi. Bular

- 1) OIV infeksiyasi
- 2) bevosita OITS (SPID) davri.

OIV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali namoyon bo‘limgan davr. Virus deyarli bir vaqtida Parijda professor Lyu Montanye hamda AQShda professor Gallo boshchiligidagi olimlar tomonidan kashf etilgan (1983-yil). Bu virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta’sir ko‘rsatadi. Virus odam organizmiga tushgach, 2–3 kundan so‘ng, 25–30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlар kuzatilishi mumkin. Bu „o‘tkir serokonversiya sindromi“ deb ataladi, bunda harorat ko‘tariladi, tunda terlash, bo‘g‘imlar va bosh og‘rig‘i, loxaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda, ayniqsa uning yuqori qismida toshmalar paydo bo‘lishi mumkin. “ В идовой спектр возбудителей при Гнойничковых поражениях кожи у больных с ВИЧ-позитивным и ВИЧ-негативным статусом” {’, р. 6-9}

Bu alomatlар odam organizmiga tushgan virus ta’siriga immunitet tizimi ma’lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog‘liq. Lekin bu davrda antitelolarni aniqlash natija bermaydi, chunki immunitet tizimining javobi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Kasallikning bu davri 5-7 yilgacha, ba’zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda OIV infeksiyasi tashxisini qo‘yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo‘lgan antitelolarni aniqlash – immun ferment taxlili reaksiyasiga asoslangan. Dastlabki antitelolar virus organizmga tushgach, 3 haftadan so‘ng shakllana boshlasa ham, qo‘llanadigan diagnostikumlar ularni ilg‘ay olmaydi. Shu bois, odamga ushbu infeksiya ilashgani to‘g‘risida virus organizmga tushganidan so‘ng 90 kun o‘tkazib olingan tekshirish natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin. Umuman olganda OITS kasalligi ancha havfli bo‘lishi bilan bir qatorda insonni o‘limga olib keluvchi asosiy kasalliklar sirasiga kiradi. Ushbu kasallik o‘ziga xos yuqish yo‘llari mavjud bo‘lib bular quyidagilar.

➤ Jinsiy aloqa orqali yuqishi — bu infektsiyalangan jinsiy suyuqliklar (og‘iz bo‘shlig‘i, rektal, genital yoki shilliq pardalari) bilan aloqa qilganda yuzaga kelishi mumkin. Hozirgi kunda ushbu usulda OIV ni yuqtirish anchayin oshib bormoqda . Bunga misol qilib himoyalanmagan jinsiy aloqa , pala-partish aloqa va boshqalar shular jumlasiga kiradi . Bu vaginal, oral va anal kabi himoyalanmagan jinsiy aloqa vaqtida sodir bo‘lishi mumkin.

➤ Perinatal yuqishi — ona tug'ruq paytida, homiladorlik paytida, shuningdek, emizishda infektsiyasini bolaga yuqtirishi mumkin. Ammo ona orqali bolaga ushbu infeksiyani yuqish darajasi anchayin past hisoblanadi chunki bu holatda onadan bolaga ona suti orqali ancha quyi ko'rsatkichlarda bolaga o'tadi.

➤ Qon quyish orqali yuqishi — hozirgi vaqtida qon quyish orqali OIV yuqtirish xavfi oshib bormoqda masalan rivojlangan mamlakatlarda juda ehtiyotkorlik bilan tekshiruv va ehtiyot choralar tufayli juda past. Shu bilan birga, giyohvand moddalarni qabul qiluvchilar yoki bemorning qoni bilan zararlangan shpritslarni qayta ishlatish oqibatida kasallik yuqish xavfi juda yuqori. Ko'p hollarda giyohvandlikga ruju qo'ygan odamlar shiprist ignalarida qolgan virusni osongina o'z tanasiga yuqtirib oladi.

Albatta bu kasallikni barcha organizmga birday yuqadi deya olmaymiz. Virus rivojlanish darajasi odamlar orasida keng tarqalgan hamda tez-tez ko'zga tashlanib turadigan ko'plab omillarga bog'liq. Ushbu omillar quyidagilardir:

- ❖ Bemorning yoshi;
- ❖ Tananing OIVdan o'zini himoya qilishi qobiliyati;
- ❖ Dori vositalari mavjudligi;
- ❖ Boshqa infektsiyalar mavjudligi;
- ❖ Bemorda genetik kasalliklar mavjudligi;
- ❖ Virusning ayrim shtammlariga qarshi himoya.
- ❖ Organizmning kasalliklarga qarshi kurasha olish qobiliyati

Hozirgi kunga qadar ushbu kasallikni yuqishi haqida turli fikrlar va taxminlar mavjud. Bular quyidagilar hisoblanadi.

- ✓ Quchoqlab ko'rishganda
- ✓ O'pishganda
- ✓ Bemor so'lagi tekkanda
- ✓ Bemor ko'z yoshi tekkanda
- ✓ Uy-ro'zg'or buyumlari (sochiq, qoshiq, vilka, choynak piyola va boshqalar)
- ✓ Ter bezidan ajralgan ter tomchilari

OIVning tashqi muhitga chidamliligi boshqa retro viruslarga o'xshash bo'lib. Uncha yuqori emas, tashqi muhitda tezda halok bo'ladi. Lekin yuqumli xususiyatlari uy sharoitidagi issiqlikda boshqa retroviruslarga nisbatan uzoqroq saqlanadi. Hatto qurigan holda ham  $22^{\circ}\text{C}$  da, 4—6 kun davom yuqumlilik xususiyatini yo'qotmavdi, lekin fermentlarga boy sharoitda faolligi keskin susavishi kuzatiladi. Harorat ko'tarilishi bilan uning faolligi tezda yo'qoladi,  $56^{\circ}\text{C}$  qizdirilganda 30 minutda halok bo'ladi, qaynatilganda 1-3minut-da halok bo'ladi. PH o'zgarishi virusga salbiy ta'sir qiladi. OIV kasalligi ochiq muhitda uzoq vaqt faoliyat yurita olmaydi bunga asosiy sabab u noqulay sharoitda uzoq muddat yashay olmaydi. Yana bir diqqatni jalb

qiladigan tarafi shundaki kasallik turli aholi yoshdagi, ayniqsa, navqiron 20-49 yoshlar o‘rtasida ko‘plab kuzatilishi bilan ahamiyatlidir. Mehnat migrantlari orasida OIV infeksiyasi bilan kasallanish holatlari ko‘plab kuzatilmoqda. “ SPID nima? ” { p. 3, b 32-33}

OIV infeksiyasi butun dunyo bo‘yicha 15-59 yoshdagi aholi orasida ko‘plab uchramoqda. OIV/OITS bilan kasallanganlar (95%) yashash sharoiti past asosan ovqatlanish hamda gigiyena qoidalariga amal qilmaydigan pala-partish hayot kechiruvchi davlatlarda eng ko‘p uchradi bu yerlarda ko‘pincha OITS tufayli o‘lim holatlari ko‘p uchraydi.

OIV infeksiyasining xavfli guruqlar orasida narkotik moddalarini qabul qiluvchilarda kasallik ko‘rsatkichi yuqori darajada turishini dunyo olimlari tomonidan qayta-qayta takrorlab kelmoqda bu esa yil sayin ortib borayotgan asr vabosini oldini olishga bo‘lgan talabni yanada yuqorilashiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda OIV infeksiyasiga qarshi kurashadigan asosiy qurol – bu profilaktika, ya’ni kasallikning oldini olishdir. Bunda quyida keltirilgan holatlarga e’tibor berish kerak:

1. OIV infeksiyasi va uning oldini olish bo‘yicha aholining bilim darajasini yanada oshirish.
2. Giyohvand moddalarni qabul qiluvchilarni imkon qadar tezroq aniqlab ularga tushuntirish ishlarini olib borish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish
3. Kasallikning jinsiy yo‘l orqali yuqishi mumkinligini yosh avlodga tushuntirish, bu kasallikga tashxis qo‘yish hamda o‘z vaqtida davolash.
4. Donor qonini OIV infeksiyasi bor yoki yo‘qligini aniqlash hamda uni qo‘llashdan oldin chuqur qayta tekshiruv ishlarini olib borish.
5. OIV infeksiyasini onadan bolaga o‘tishi mumkinligini yosh onalarga shifokor tomonidan tushuntirish hamda onaning salomatligini doimiy ravishda nazorat qilib borish.
6. OIV infeksiyasini kasb taqozosi bo‘yicha yuqishining oldini olish. Kasb kasalligidan o‘z -o‘zini himoya qilish.

Hozirgi kunda OIV yoki OITSga davo yo‘q. Mavjud davolash usullari kasallikning rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin va ko‘pchilik odamlarga uzoq va nisbatan sog‘lom hayot kechirishga imkon beradi. Afsuski bizda mavjud davolash usullari mutloq davo bo‘la olmaydi aksincha ular kasallikni ma’lum muddatga rivojlanishini sekinlashtirish mumkun. Infeksiyani imkon qadar erta muddatlarda aniqlanganda antiretrovirusli davolanish juda muhimdir — bu hayot sifatini yaxshilaydi, umr ko‘rish davomiyligini uzaytiradi. Shuningdek, 2013-yil iyun oyida chop etilgan Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti yo‘riqnomalariga muvofiq yuqtirish xavfini kamaytiradi. Hozirgi kunda ushbu infektsiyaga qarshi hech qanday emlash yoki dori-darmon ishlab chiqilmagan, ammo so‘nggi yillarda davolash usullari ancha yaxshilandi. Bemorlarning sog‘ligi va hayot sifatini kuniga qabul qilinadigan bir

tabletka sezilarli darajada yaxshilasi mumkin. Bugungi kunda insoniyat o‘z turmush tarzi davomida turli xavf-xatarlarga duch kelmoqda. Mana shunday xavf-xatarlar orasida shunday bilinmas, ko‘zga ko‘rinmaslari ham borki, ammo ularning keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar anchayin jiddiy hamda e’tiborga molikdir. Barchaga ma’lumki, turli kasallik va viruslarning inson hayotiga ta’siri haqida ogohlikni oshirish XXI asr oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Har yili 1-dekabr sanasida “OITSga qarshi butunjahon kurash kuni” nishonlashi o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Zero, hozirgi davrda OIV/OITS kasalligining xavfi har qachongidan ham yuqori va u bilan kurash butun dunyo hamjamiyati uchun bosh vazifadir. Dastlab, bu kasallik o‘tgan asrning o‘rtalarida Afrika hududlarida paydo bo‘lgani taxmin qilinadi. Birinchi marta 1981-yilda AQSh kasalliklar nazorati va profilaktikasi markazi tomonidan OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) kasalligi aniqlangan va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotiga hisobot topshirilgan. Kasallik aniqlanganidan bugungi kungacha, turli hisob-kitoblarga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab 68-113 million insonga ushbu kasallik bo‘yicha tashxis qo‘yilgan bo‘lsa, shundan 41 million nafari kasallik tufayli erta vafot etgan. UNAIDS (BMTning OIV/OITS bo‘yicha dasturi) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil yakuni bo‘yicha dunyoda jami 39 million inson bu kasallikdan aziyat chekmoqda hamda birgina o‘tgan yilning o‘zida 1,3 million yangi bemorlar aniqlangan bo‘lsa, o‘lim holati qayd etilganlar soni 630 ming kishini tashkil etgan. OIV (odam immuniteti tanqisligi virusi) surunkali yuqumli kasallik bo‘lib, inson organizmida butun hayoti davomida saqlanib qoladi. U organizmni tashqi xavfli ta’sirlardan himoya qiluvchi tizim — immun tizimini yemiradi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, virus organizmga tushgan dastlabki davrda hech qanay noxush alomatlar sezilmaydi, immun tizimi viruslarning tajovuzini bostirib turadi. Odam virusni yuqtirib olganidan boshlab 3 oydan 10-12 yilgacha o‘zi kasal ekanini sezmay yurishi mumkin. Bu davrda organizmda OIV viruslari bilan kasallangan hujayralar soni sog‘lom hujayralarga qaraganda oshib boradi, natijada OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) kelib chiqadi. Bu surunkali tarzda kechuvchi tizimli xastalik. Organizmning viruslar bilan qoplanishi natijasida immun tizimi o‘z vazifasini bajara olmaydi, natijada inson har qanday tashqi ta’sirga sezuvchan bo‘ladi, oddiy kasalliklarni ham og‘ir kechiradi. Organizmning kurashuvchanligi yo‘qolGANI bois yondosh kasalliklar rivojlanib boraveradi. OITS sababsiz uzoq davom etuvchi yo‘tal, qisqa vaqt ichida keskin ozib ketish, harorat sababsiz ko‘tarilishi, uzoq vaqt ich ketishi (diareya), og‘iz bo‘shlig‘I va turli a’zolar yallig‘lanishi, xavfli o‘smalar rivojlanishi kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi.

### Xulosa va munozara

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki OITS hamda OIV insoniyat uchun eng xavfli kasalliklar sirasiga kiradi. Ushbu infeksiya keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lgani uchun muhofaza tadbirlari ijtimoiy hayotning barcha soha vakillari ishtirokida

olib borilishi lozim. Har bir yigit-qiz bu infeksiyaning tarqalish yo‘llari, uning oldini oladigan tadbirlardan xabardor bo‘lishi va o‘zini undan ehtiyyot qilishi kerak .

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 М.. Азимова Ф. В. “Определение видового состава возбудителей орофарингеального кандидоза у больных ВИЧ-инфекцией”. Жур-Нал «Дерматовенерология и эстетическая медицина». 2011.Л’°1-2,с.93-94.
2. Азизов Б. С.. И смаилова Г. А. «Видовой спектр возбудителей при Гнойничковых поражениях кожи у больных с ВИЧ-позитивным и ВИЧ-негативным статусом». «Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья». 2010.М’ I -2.с.6-9.
3. Ахмедов К. Р. «SPID» нима? – Т.:«Meditina». 1990.
4. Arifov S., Eshboyev E. «Teri va tanosil kasalliklari». – Т. : 2010.
- 5.Kh.K. Shodiev, K.R. Ahmedov. Teri va tanosil kasalliklari, 2010, Toshkent: In Sino — 40-42-bet.
- 6 . A.B. PAKIRDINOV, U.A.VALIXONOV <<OITS va OIV>>